

Ergasheva Moxina Narzulla qizi,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
2-bosqich magistranti
e-mail: ergashevamoxina320@gmail.com



ER-XOTIN MUNOSABATLARIDA NIZOLAR KELIB CHIQISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh oilalarda er-xotin munosabatlaridagi nizolarning psixologik xususiyatlari, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari atroflicha yoritiladi. K.Tomasning shaxslararo munosabatlar metodikasi asosida Jizzax viloyatida o'tkazilgan empirik tadqiqot yordamida shahar va qishloq respondentlari o'rtasidagi qator tafovutlar aniqlandi. Natijalar urbanizatsiya va jinsiy rol ziddiyatlarining nizolarni kuchaytirishini ko'rsatib, uning yechimi sifatida oilaviy psixologiya markazlari, treninglar va profilaktik maslahatlar orqali bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрены психологические особенности конфликтов в супружеских отношениях в молодых семьях, причины и последствия их возникновения. Эмпирическое исследование, проведенное в Джизакской области К. На основе методики межличностных отношений Томаса был выявлен ряд различий между городскими и сельскими респондентами. Результаты показывают, что урбанизация и гендерно-ролевые конфликты усугубляют конфликт, предлагая решения с помощью центров семейной психологии, обучения и профилактических консультаций.

Annotation. This article covers in detail the psychological characteristics of conflicts in a couple's relationship in young families, the causes and consequences of their origin. An empirical study conducted in the Jizzakh region K. Thomas identified a number of discrepancies between urban and rural respondents based on his methodology of interpersonal relations. The results suggest that urbanization and gender role conflict exacerbate conflict by offering elimination through Family Psychology centers, trainings, and preventative counseling as its solution.

Tayanch soʻzlar: *yosh oila, psixologik xususiyatlar, raqobat, urbanizatsiya, jinsiy farqlar, oilaviy nizolar, nikoh, nizo, stress, ishonch, hissiyot, nevrotik oila.*

Ключевые слова: *молодая семья, психологические особенности, конкуренция, урбанизация, половые различия, семейные конфликты, брак, конфликт, стресс, доверие, эмоции, невротическая семья.*

Keywords: *young family, psychological characteristics, competition, urbanization, sex differences, family conflicts, marriage, conflict, stress, trust, emotion, neurotic family.*

Kirish. Jahonda integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida ijtimoiy munosabatlardagi global oʻzgarishlar oila instituti, uning mavqeyi, tarkibi, tuzilishi, funksiyasi, vazifalari va faoliyatiga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatmoqda. Yoshlarning oʻz oilaviy hayotlariga oid tasavvurlari muhim boʻlib, ularning qanchalik reallikka yaqin boʻlishi oilaning mustahkamligiga xizmat qiladi.

Yosh oilalar nikohning ilk yillarida oʻzlarining hissiy va psixologik rivojlanish bosqichida boʻladi. Ularning oʻzaro munosabatlari, qaror qabul qilish jarayonlari va stressga qarshi kurash usullari koʻpincha noanʼanaviy boʻladi. Bu holat ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur oʻrganishni talab qiladi.

Oiladagi nizolar nafaqat oila aʼzolari, balki butun jamiyatga taʼsir koʻrsatadi. Ular farzandlarning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi munosabatlarga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shuning uchun, bunday nizolarni tahlil qilish va ularni kamaytirish yoʻllarini izlash dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi hukumatimizning oila mustahkamligini taʼminlash, uning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyasidagi nufuzini oshirishga koʻmaklashish hamda yosh er-xotinlarning moddiy, uy-joy, maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi aniq dasturiy tadbirlari mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida eʼtirof etilishini taʼminlamoqda. Zero, davlatimiz rahbari oilaning jamiyat taraqqiyotidagi nufuzini taʼriflab: “Oila haqida avlodlarning davomiyligini taʼminlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllari qanday inson boʻlib yetishishga bevosita taʼsir koʻrsatadigan tarbiya oʻchogʻi ekanligini tan olishimiz darkor”, – deb taʼkidlaganlar.

Yosh oila – nikoh hayotiy siklining 9 yilgacha boʻlgan davrini tashkil etadigan, er va xotin juftligida oilaviy hayotning dastlabki murakkab ijtimoiy adaptatsiyasi bilan kechadigan jarayonlarni oʻzida kechiradigan oila.

Bir necha asrlardan beri to'xtovsiz bahslarga sabab bo'layotgan er va xotin o'rtasidagi nizolar, ularning munosabatlardagi sovuqliklarning oldini olish, bir so'z bilan aytganda, yosh oilalarda oilaviy nizolarning yuzaga kelish omillari mutaxassislar tomonidan dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etiladi. Shu bois, tadqiqotimizda yosh oilalarda nizolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi yosh oilalarda oilaviy nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan F.A.Akramova, M.G.Davletshin, G'.Z.Ikmatullayev, M.T.Isaqova, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, M.Umarova, I.O.Xaydarov, G.T.Yadgarova, G.S.Yunusova, N.G'oipova, O'.B.Shamsiyev, G.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan oilaning jamiyatdagi o'rni, oiladagi sog'lom turmush tarzi va munosabatlarni muvofiqlashtirish, oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar, oilaga psixologik yordam ko'rsatish yo'llari tadqiq etilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan A.Adams, W.Berg, L.Bumpass, S.T.Billingsley, R.C.Bean, E.T.Burgess, D.E.Delis, Z.Freyd, D.Jodelet, M.Kampbell, K.X.Kaufman, G.E.Kraig, J.Quayet, J.Lofas, T.C.Martin, T.Parsons, C.Rogers, M.M.Sveyeney, K.M.Schafer, L.G.Terman, P.D.Vollin, L.Villiam, F.Zimbardoo, R.Chaldini va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoshlarni oilaga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolari, tasavvurlari, shuningdek, L.Knobloks, V.Stander, S.Vilson kabi olimlarning tadqiqotlarida esa oilalarning inqiroz davridagi munosabatlarining o'ziga xos jihatlari, farzandlarining munosabatlaridagi o'zgarishlar sikli, oila a'zolarining bir-birini qo'llab-quvvatlashi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Oiladagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi muhim sabablarni o'rgangan S.I. Golod oilaviy qiyinchiliklarning quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishini qayd etadi:

- uy xo'jaligini tashkil etish;
- qarindoshlar bilan munosabatning og'irligi;
- bolalar va uning tarbiyasi;
- munosabatlardagi qiyinchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar, ichkilikka berilish, qiziqish va e'tiqodlarning turli yo'nalishdaligi, rashk va qizg'anish, jinsiy nomutanosibliklar.

Ko'pincha oila buzilishining eng muhim sabablari: er-xotinning bir-biriga nisbatan ishonchi yo'qolishi, oila byudjetining yetarli bo'lmasligi,

Bir necha asrlardan beri to'xtovsiz bahslarga sabab bo'layotgan er va xotin o'rtasidagi nizolar, ularning munosabatlardagi sovuqliklarning oldini olish, bir so'z bilan aytganda, yosh oilalarda oilaviy nizolarning yuzaga kelish omillari mutaxassislar tomonidan dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etiladi.

N.N. Obozov
“Oilaviy hayotdan
qoniqmaslik,
nikohning buzilishi
va beqarorligini
belgilovchi
sabablarni er bilan
xotin o‘rtasidagi
ijtimoiy-iqtisodiy
funksiyaning
tenglashtirilishi-
dandir”, deb
tushuntiradi.

hissiyotning (sevgi-muhabbatning) susayishi, xarakter xususiyatlarning mos kelmasligi, er-xotindan birining bola ko‘rishga layoqati yo‘qligi yoki jinsiy qoniqmaslik holatlaridan iboratdir.¹

Dayan Vagen ajrashish vaqtida ajrashgan sheriklar munosabatlarini tekshirgan. Ma’lum bo‘lishicha, ko‘p hollarda ajrashishdan oldin er-xotinlar ijtimoiy jihatdan odatdagiga qaraganda bo‘lib qoladilar².

Vagen tadqiqotiga ko‘ra, ajrashish oldindan reja qilinmaydi. Uning fikriga ko‘ra, ajrashishga moyil tomon juftiga qaraganda mavjud munosabatlardan to‘la qoniqmaydi va nikohdan mustaqil “hudud” hosil qilib oladi. Shunday vaziyat bo‘ladiki, munosabatlarning uzil-kesil buzilganini ajrashish tarafdori bo‘lgan tomon tushunib yetadi. Shu vaqtdan boshlab erkak yoki ayol sherigi bilan har qanday munosabatlarni yakunlash hukmida bo‘ladi. Vagenning taxminicha, bu erning munosabatlar boshlanishidagi mavjud nuqsonlari hisobga olinmagan, xotinning ko‘zga tashlanadigan jihatlarini bo‘rttirgan “sevgisiga” qarama-qarshi holatdir.

A.Kempinskiy bo‘lsa, er-xotin hamjihatligi to‘g‘risidagi qiziqarli konsepsiyani taqdim etdi. Muallif bu konsepsiyani tayyorlashda nevroitik oilalarga oid ma’lumotlarga tayanadi. Uning qarashlariga ko‘ra, er-xotin o‘rtasidagi mutanosiblik uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs xislatlariga qaraganda, shunchaki yuzaki (ikkinchi darajali) fazilatlar muhimdir. Ikkinchi darajali shaxs sifatleri situativ xulq-atvorda namoyon bo‘ladi. Ular er-xotin juftligining yaxlit tuzilma sifatida mos kelishidagi vazifalarini muvofiqlashtiradi.

N.N. Obozov “Oilaviy hayotdan qoniqmaslik, nikohning buzilishi va beqarorligini belgilovchi sabablarni er bilan xotin o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyaning tenglashtirilishidandir”³, deb tushuntiradi. Uning fikricha, oldinlari erning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi uning oiladagi bog‘liqligini belgilagan bo‘lsa, u oilani buzilishdan saqlashning bitta vositasi edi, xolos. Hozirgi kunda er bilan xotinning ijtimoiy-iqtisodiy tengligi ularning funksional majburiyatlarini taqsimlashda yangicha yondashishni talab qiladi.

V.E. Semenov, Masharov, Yu.T. Timofeevlarning tadqiqotlarida oilada nizoli vaziyatlarning kelib chiqishi inson turmush tarzini butunligicha qamrab oluvchi sohalaridagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotdagi natijalarga ko‘ra, ishchi ayollar uchun eng ahamiyatli hayotiy qadriyatlar “oilaviy baxt”, “sog‘lomlik”, “sevimli

¹ Entone Giddens. Sotsiologiya. – Toshkent: Sharq, 2002. – 848 b.

² Vaughan, Diane. Uncoupling: Turning Points in Intimate Relationships. New York: Oxford University Press, 1986.

³ Обозов Н.Н. Психология межличностных отношений. – Киев: изд-во Ун-та. 1990. – 192 с.

ish” va “sof vijdon”dan iborat ekan. Erkak ishchilarda esa qadriyatlarning eng asosiysini “sevimli mashg‘ulot”, so‘ngra “oilaviy baxt” tashkil qilishi aniqlangan. E.K. Vasileva, V.X. Myager, G.M. Mishina, Ye.S. Kalmikova, K.E. Semenova, T.I. Korotkina A.K. Dmitrienko va boshqalar oilani o‘rganishda unda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni har bir o‘rganilayotgan oila rivojlanishining turli bosqichlarida, er-xotinlik hayotining turli yillarida o‘rganish va shu oilalarning staji kabi omillarni e‘tiborga olish lozimligini ko‘rsatadilar. Er-xotin munosabatlari xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik tadqiq etish borasida alohida e‘tiborga loyiq ishlarni amalga oshirgan olimlardan G.M. Andreeva, L. Ya. Gozman, Yu.M. Jukov, N.N. Obozov, N.F. Fedotova va boshqalar oilada er-xotinlar bir-birlarini qanday idrok etishlarining nikoh mustahkamligi va er-xotin munosabatlari sifatiga ta‘sirining ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Yosh oilalarda oilaviy nizolar muammosining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida shahar va qishloq hududlarda yashovchi 80 nafar respondentdan K.Tomassning “Shaxslararo munosabatlarni aniqlash” metodikasi asosida ishlab chiqilgan so‘rovnoma bo‘yicha tadqiqot o‘tkazildi.

1-jadval

**K.Tomassning “Shaxslararo munosabatlarni aniqlash”
metodikasining Student-t mezoniga ko‘ra (hudud bo‘yicha)
ko‘rsatkichlari**

<i>Shkala</i>	<i>Hudud</i>	<i>N</i>	<i>O‘rtacha qiymat</i>	<i>Standart og‘ish</i>	<i>T</i>	<i>Ishonch darajasi</i>
<i>Raqobat</i>	shahar	40	6.60	6.550	2.138	.036
	qishloq	40	5.60	5.211		
<i>Hamkorlik</i>	shahar	40	5.63	2.110	.241	.810
	qishloq	40	5.53	2.073		
<i>Murosachilik</i>	shahar	40	5.98	1.835	-1.248	.216
	qishloq	40	6.38	1.881		
<i>Tortishuvdan qochish</i>	shahar	40	6.45	1.230	.466	.643
	qishloq	40	6.25	1.612		
<i>Vaziyatga moslashish</i>	shahar	40	5.48	1.739	-1.663	.100
	qishloq	40	6.13	2.085		

Yuqorida taqdim etilgan jadval asosida hududlar (shahar va qishloq) bo'yicha statistik tahlil berilgan. Student-t mezon natijalari asosida $p < 0.05$ bo'lsa, ishonchli farq mavjud, $p > 0.05$ bo'lsa, farq yo'q deb baholanadi.

Raqobat ($t = 2.138$, $p = 0.036$, $p < 0.05$) shahar respondentlarida qishloq respondentlariga qaraganda sezilarli darajada yuqori.

Hamkorlikda ($t=0.241$, $p=0.810$, $p > 0.05$) shahar va qishloq respondentlarining natijasi bir xil.

Murosachilikda ($t=-1.248$, $p=0.216$, $p > 0.05$) respondentlarda farq bo'lsa-da, bu farq ishonchli emas.

Tortishuvdan qochishda ($t=0.466$, $p=0.643$, $p > 0.05$) shahar va qishloq respondentlari darajasi bir xil.

Vaziyatga moslashishda ($t=-1.663$, $p=0.100$, $p > 0.05$) respondentlarda farq bo'lsa-da, bu farq ishonchli emas.

2-jadval

K.Tomassning "Shaxslararo munosabatlarni aniqlash" metodikasining Student-t mezoniga ko'ra (jins bo'yicha) ko'rsatkichlari

Shkala	Jinsi	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darajasi
Raqobat	erkak	40	6.78	.456	2.959	.004
	ayol	40	5.43			
Hamkorlik	erkak	40	5.53	.416	-.241	.810
	ayol	40	5.63			
Murosachilik	erkak	40	6.28	.323	.619	.538
	ayol	40	6.08			
Tortishuvdan qochish	erkak	40	5.80	.411	-2.674	.009
	ayol	40	6.90			
Vaziyatga moslashish	erkak	40	5.78	.398	-.126	.900
	ayol	40	5.83			

Yuqorida taqdim etilgan jadval asosida jins (erkak va ayol) bo'yicha statistik tahlil berilgan. Student-t mezon natijalari asosida $p < 0.05$ bo'lsa, ishonchli farq mavjud, $p > 0.05$ bo'lsa, farq yo'q deb baholanadi.

Raqobat ($t=2.959$, $p=0.004$, $p<0.05$) erkak respondentlarda ayol respondentlarga qaraganda yuqoriroq ekani namoyon bo'lmoqda.

Hamkorlikda ($t=-0.241$, $p=0.810$, $p > 0.05$) erkak va ayol respondentlarning natijasi bir xil.

Murosachilikda ($t=0.619$, $p=0.538$, $p > 0.05$) respondentlarda farq bo'lsa-da, bu farq ishonchli emas.

Tortishuvdan qochish ($t=-2.674$, $p=0.009$, $p < 0.05$) darajasi bo'yicha ayol respondentlarda erkak respondentlarga nisbatan yuqoriroq ekani namoyon bo'lmoqda.

Vaziyatga moslashishda ($t=-0.126$, $p=0.900$, $p > 0.05$) respondentlarda farq mavjud.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, yosh oilalarda er va xotin munosabatlaridagi nizolar, asosan, raqobat va tortishuvdan qochish darajalari bilan bog'liq bo'lib, shahar respondentlarida raqobat yuqoriroq ($t=2.138$, $p=0.036$), erkaklarda esa bu ko'rsatkich ayollarga nisbatan sezilarli darajada kuchli ($t=2.959$, $p=0.004$). Ushbu farqlar urbanizatsiya ta'siri va jinsiy rol ziddiyatlaridan kelib chiqadi, chunki qishloqda hamkorlik va murosachilik darajalari yuqoriroq saqlanadi. Bundan kelib chiqib, K.Tomas metodikasiga asoslangan statistik tahlillar orqali nizolarni bartaraf etish uchun oilaviy maslahat markazlarida shahar-qishloq va jins bo'yicha maxsus treninglar tashkil qilish taklif etiladi.

Yakuniy qism. Natijalardan ko'rinib turibdiki, raqobat darajasi shaharda istiqomat qiluvchi respondentlarda qishloqda yashovchi respondentlarga qaraganda yuqoriroq bo'lib, bu urbanizatsiya oqibati deya olishimiz mumkin. Qolaversa, ushbu darajaning erkak respondentlarda ayollarga nisbatan yuqori chiqqani ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Tadqiqot yosh oilalarda nizolar shahar hududida raqobatning kuchayishi va ayollarda tortishuvdan qochishning yuqori darajasi ($t=-2.674$, $p=0.009$) bilan ajralib turishini isbotladi, bu esa hissiy yetishmovchilik va kommunikatsiya buzilishidan yuzaga keladi. Natijalar oila institutining jamiyatdagi barqarorligini ta'minlashda psixologik omillarning muhimligini ta'kidlaydi, chunki urbanizatsiya va rol ziddiyatlari nizolarni kuchaytiradi. Umuman, er-xotin munosabatlarini mustahkamlash uchun dastlabki nikoh yillarida profilaktik choralar zarur.

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlaridagi nizolarni bartaraf etish uchun quyidagi amaliy takliflarni joriy etish zarur deb topdik:

- shahar va qishloq respondentlari uchun alohida oilaviy psixologiya markazlari tashkil etish, unda K.Tomas metodikasi asosida raqobat va tortishuvdan qochish darajalarini tushuntiruvchi treninglar tashkil etish.

- erkak va ayol respondentlar orasidagi farqlarni hisobga olgan holda jinsiy rol ziddiyatlarini yumshatishga qaratilgan seminarlar tashkil etish,

Tadqiqot yosh oilalarda nizolar shahar hududida raqobatning kuchayishi va ayollarda tortishuvdan qochishning yuqori darajasi ($t=-2.674$, $p=0.009$) bilan ajralib turishini isbotladi, bu esa hissiy yetishmovchilik va kommunikatsiya buzilishidan yuzaga keladi.

masalan, erkaklarda raqobatni kamaytirish va ayollarda murosachilikni rivojlantirish.

– davlat dasturlari doirasida nikohning ilk yillarida (9 yilgacha) majburiy psixologik maslahatlar joriy etish, maqsad – kommunikatsiya va stressga chidamlilikni oshirish.

– yosh oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish uchun mobil ilovalar va onlayn platformalar ishlab chiqish, maqsad – urbanizatsiya ta'sirini ijobiylashtirish.

– oilaviy psixologlar tomonidan jins va hudud farqlarini hisobga olgan holda raqobatni hamkorlikka aylantirishga e'tibor qaratilgan individual maslahatlar tashkil etish.

– davlat dasturlari doirasida yosh er-xotinlarga kommunikatsiya va stressga qarshilik treninglari joriy etish, maqsad – nizolarning oldini olish.

Ushbu takliflar tadqiqot natijalariga asoslanib, nizolarni profilaktik yo'l bilan hal qilishga yordam beradi va oila institutini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. *Oila va jamiyat taraqqiyoti*. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Andreeva G.M. *Ijtimoiy psixologiya*. – Moskva: Akademiya, 2001. – 368 b.
3. Akramova F.A. *O'zbek oilasida nizolar va ularning oldini olish*. – Toshkent: Fan, 2015. – 210 b.
4. Entone Giddens. *Sotsiologiya*. – Toshkent: Sharq, 2002-yil. – 848 b.
5. Обо́зов Н.Н. *Психология межличностных отношений*. – Киев: изд-во Ун-та, 1990. – 192 с.
6. Giddens A. *Sotsiologiya*. – Toshkent: Sharq, 2002. – 848 b.
7. Vaughan, Diane. *Uncoupling: Turning Points in Intimate Relationships*. – New York: Oxford University Press, 1986.
8. Golod S.I. *Oilaviy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari*. – Moskva: Nauka, 1981.
9. Obozov N.N. *Er-xotin munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari*. – Leningrad: Izdatelstvo LGU, 1980.
10. Thomas K. *Shaxslararo munosabatlarni baholash metodikasi* // *Jurnal psixologii*, 1976. – No. 4. – B. 45-62.